

3D MODELLASHTIRISH ORQALI TABIIY CHARM VA MO'YNADAN KIYIM TAYYORLASHDA FOYDALANILADIGAN XOM ASHYOLARNI MINIMALLASHTIRISH

Temirova Gulnoz Ibodovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrasi dotsenti*

Esanova Ma'rifat G'ayratovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrasi I-bosgich tayanch doktoranti*

Yuldasheva Sitorabonu Ramazonovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrasi II-bosgich magistri*

E-mail: gulnoz.temirova.72@mail.ru

Tel: +998914412772

Annotatsiya Tabiiy charm va mo'yna xom ashvosidan kiyim tayyorlash jarayonida xom ashyo maydonidan chiqindisiz foydalanish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan turli xildagi charm va mo'yna qiyqimlaridan foydalanilib, tayyor mahsulot olinadi. Xom ashyo tayyor mahsulotga aylangunga qadar bir nechta jarayonlardan o'tadi bu jarayonlarda turli xildagi va o'lchamdagagi charm va mo'yna bo'lakchalari hosil bo'ladi.

Tayanch so'zlar: chiqindi; tabiiy mo'yna; tabiiy charm; bezak; qiyqim; andaza; moda; konstruktsiya.

Kiyimlarni virtual loyihalash va ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni minimallashtirish masalasi hozirgi kunda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalişning ahamiyatini tushunish uchun quyidagi jihatlarni ko'rib chiqamiz:

Tekstil sanoati oqibatlari: Kiyim ishlab chiqarish global miqyosda chiqindilarning katta qismini tashkil qiladi. 2019 yildayoq dunyo bo'yicha har yili 92 million tonna tekstil chiqindilari hosil bo'lgan. Bu chiqindilar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning katta qismi poligonlarga yo'qlanadi yoki yoqiladi.

Virtual dizayn: Kompyuterda loyihalash orqali matolarni to'g'ri tanlash, miqdorini optimallashtirish va qoldiqlar hosil bo'lishining oldini olish mumkin. Bu chiqindilarni minimal darajaga olib keladi va tabiatga zararni kamaytiradi.

Matolardan samarali foydalanish: Virtual modellashtirish texnologiyalari matoni tejashga imkon beradi, chunki dizaynerlar yolg'on kesishlar yoki noto'g'ri hisob-kitoblardan qochishi mumkin.

Chiqimlarni kamaytirish: Tovar ishlab chiqarishdan avval uning dizaynnini virtual muhitda yaratish materiallar va energiya sarfini kamaytiradi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi

Ulkan chiqindilar muammosini hal qilish: Chiqindilarni kamaytirish nafaqat tabiat uchun, balki jamiyat uchun ham foydali. Poligonlarga tashlanadigan chiqindilar nafas olish havosini ifloslantirib, inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

Mas'uliyatli moda tendensiyalari: Virtual loyihalash orqali «zero-vast» (hech qanday chiqindi qoldirmaslik) strategiyasida ishlangan kiyimlar iste'molchilarning ekologik ongini oshiradi.

3D modellashtirish: Bunday platformalar dizaynerlarga kiyimlarni virtual muhitda to'liq ko'rish va tahrir qilish imkonini beradi, bu esa ko'plab qayta ishlash jarayonlarini bartaraf etadi.

Sanoqli namunalar ishlab chiqarish: Virtual dizayn texnologiyalari orqali tayyorlangan loyihalardan faqat zarur bo'lgan miqdorda namunalar yaratiladi, bu ortiqcha ishlab chiqarishning oldini oladi.

Kiyimlarni virtual loyihalash chiqindilarni minimallashtirish uchun muhim vosita bo'lib, sanoatda barqaror rivojlanishga yordam beradi. Bunday yondashuv tabiatga yordam berish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va kelajak uchun mas'uliyatli moda standartlarini yaratadi.

Hozirda sanoat korxonalarida resurslarni tejash (kamchiquitli yoki chiqindisiz) va ekologik jihatdan yuqori samaradorlikka ega mahsulotlarni ishlab chiqarish dolzARB bo'lib bormoqda [1-2].

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning strategik yo'nalishi sifatida qator mamlakatlarda, jumladan respublikada ham ularni tezkor hal etish muhim ahamiyatga ega. Xalqni sifatli tikuv buyumlari bilan ta'minlash, jumladan tabiiy mahsulotlarini ko'paytirishga katta ahamiyat berilmokda. Aholining tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ularni sifatini oshirish va tayyor mahsulotlar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ishlab chiqarish hajmini va uning sifatini yanada oshirish talab etiladi [3-4].


Raqobatbardosh tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda mahsulot sifatini ta'minlovchi texnologik mashinalar va texnologiyalarni takomillashtirish evaziga mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, jumladan tabiiy charm va mo'ynadan resurstejamkorlik asosida muammolarini kompleks hal etish shu bilan birga ishlab chiqarishning innovatsion usullarini yaratish yengil sanoatni rivojlanishiga asos bo'ladi. Mahalliy xom ashylardan (tabiiy charm va mo'yna chiqindilari) tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarni takomillashtirish, ular samaradorligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiy sharoitini yuksaltirishning asosiy printsipleridan biriga aylanmoqda [5].

Buyumlarning gigienik xossalari ularni tashkil etgan paket qalinliklariga bog'liq. Jumladan, tabiiy mo'yna va charmli buyumlarning havo o'tkazuvchanlik xususiyatiga ularning havo harorati ham ta'sir etadi. Tabiiy mo'yna va charm paketi tarkibini, konstruktsiyasini o'zgartirish hisobiga kiyimning xususiyatini to'g'ri taqsimlay olishi zarur.

Kiyim uchun mo'ljallangan tabiiy mo'yna va charm teri to'qimalari tekis bo'yalgan bo'lishi kerak, yorug'likka, ishqalanishga, terlashga, kimiyoiy tozalashga va boshqalarga chidamli bo'lishi bilan birga moda yo'halishiga qarab turli tusga ega bo'lishi kerak. Yumshoqlik, egiluvchanlik, uning tabiiyligini ta'kidlaydigan kichik xom ashyo nuqsonlari mavjudligida tabiiy ko'rinish - bular kiyim uchun mo'ynaga qo'yiladigan zamonaviy talablardir. Matodan farqli o'laroq, kiyim uchun tabiiy polotnodan (charm va mo'yna) bichishda uning navi, tuzilishi va topografiyasi, cho'zilish yo'nalihsnii va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olish kerak. Shuning uchun to'g'ri siluetli, sal yopishgan va yopishib turadigan charmli paket ostida qulay mikroiqlim hosil bo'ladi [6-7].

Tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paketdan kiyim konstruktsiyasini qurish uchun siluet tanlashda nafaqat moda yo'nalihslari, balki kiyimning funksional vazifasini ham inobatga olish shart. Har bir ishlab chiqariladigan kiyimning maqsadiga ko'ra tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paket tayyorlanadi. Tabiiy kompozitsiyali paket tayyorlashda charm va mo'ynali kiyimlarni bichish jarayonida hosil bo'ladi sanoatning ikkilamchi chiqindilari bo'lib, ular teri to'qimasiga ko'ra tanlanadi. Teri to'qimasi turlicha bo'lgan paketlarning xususiyatlari ham har xil bo'ladi [8].

Mo'ynali kiyimlardan dekorativ bezaklarning funksional tuzilishini qurish funksiyalarini quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm). Funktsiyalarning asosiy yo'nalihsi - mo'ynali buyumlarni hajmli dekorativ bezatish - odamlarni atrof-muhit omillaridan himoya qilish va iste'molchilar talablariga javob berish.



1-rasm. Bezak tuzilishining tarkibiy qismlari

Charm va mo'yna sanoati turli tarkibli, turlicha qalinlikdagi va rangga ega yarim mahsulotlarni tikuvchilik sanoatiga yetkazib beradi. Tikuvchilik sanoatida esa o'z navbatida bu terilarning maqsadiga ko'ra kiyim tayyorlash jarayonida foydalanadi. Tikuvchilik sanoatining amalga oshiradigan faoliyatlaridan biri bu kiyim detallarini bichib olish bo'lib, bu jarayonda bir qancha mo'yna va charm qiyqimlari hosil bo'ladi. Bu qiyqimlardan samarali foydalanish evaziga biz tomonimizdan taklif qilinayotgan texnologiya asosida turli xildagi bejirim kompozitsiyalar olishning keng imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paketning asosiy komponentlari:

- tabiiy charm;
- tabiiy mo'yna;

-ipak ip;

-asos sifatida bo'z ishlataladi.

Keng assortimentdagi kiyimlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paketlardan foydalilanadi [7-8].

Asrlar davomida turli xususiyatlarga ega sun'iy materiallar ixtiro qilingan, ammo sun'iy charm va mo'ynalar tabiiy charm va mo'yna bera oladigan xossalarni o'zlashtirolmaydi shuning uchun ham tabiiy charm va mo'ynalar hamon mashhurligicha qolmoqda. Tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paketlardan har xil turdag'i kiyimlar: bosh; ust; oyoq; qo'lqoplar v.h. lar hattoki yengil kiyimlar ham ishlab chiqariladi. Masalan: ko'yaklar, sarafanlar, yubkalar, shimplar va boshqalarni tayyorlash mumkin.

Tabiiy kompozitsiyali (charm va mo'yna) paketlar elastikligi va egiluvchanligi yuqori bo'lganligi sabali mahsulot olishning innovatsion usullarini ishlab chiqishga imkoniyat beradi. Shu bilan bir qatorda resurstejamkor ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida insonlarga eng kam ta'sir ko'rsatadigan texnologik vositalar va jarayonlar to'plami bo'lib hisoblanadi.

Resurslarning tejalishi asosida energiya va resurslardan oqilona foydalinish evaziga ekologik barqaror mahsulot olinadi. Bo'lajak buyumning sifati va uni ishlab chiqarish hamda iste'mol qilishidagi iqtisodiy samaradorlikka model` yaratilayotganda asos solinadi. Kishilik jamiyatni taraqqiyotining har bir bosqichida kiyim shakli o'zgarib turishini hisobga olish asosiy masalalardan. Har bir zamonaviy kiyimlarni modellarini yaratayotganda fan-texnika va amaliy san'atining so'nggi yutuqlaridan eng yuqori darajada foydalana olish va qulay kompozitsion hamda kostruktiv yechimlarni tanlay olish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Темирова, Г. И. (2020). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОЛЛАГЕНСОДЕРЖАЩИХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КАЧЕСТВЕННЫХ И РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. In Всероссийская конференция молодых исследователей с международным участием «Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации»(Социальный инженер-2020) (pp. 152-158).
2. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. Вопросы науки и образования, (2 (3)), 37-39.
3. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). PRODUCTION TECHNOLOGY FROM NATURAL POWER ON THE FULL-THERMOLOGICAL TECHNOLOGY. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
4. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). AN ANALYSIS OF ART DECORATION USED IN SEWING ITEMS. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).

5. Темирова, Г. И., et al. "Перспективные направления использования коллагенсодержащих материалов при изготовлении изделий различного ассортимента." Научно-технический журнал Наманганского инженерно-технологического института 1 (2020): 63-67.
6. Темирова Г.И., Субхонова И.И., Кудратов Ш. 2022. СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ КОЛЛАГЕНА В ПРОИЗВОДСТВЕ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy . 10, 1 (январь 2022 г.), 426–430.
7. Ибодовна, Темирова Г. «Ресурсообережные способы соединения натурального меха с основной деталью». Журнал NX , том. 6, нет. 05, 2020, стр. 45-47.
8. Темирова, Г. И., & Абдуллаева, Г. Ш. ПОЛУЧЕНИЕ КОЛЛАГЕНСОДЕРЖАЩИХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ИЗГОТОВЛЕНИИ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 35 (том 1)(апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04. 2022., 120.